



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA IMLOVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

**Qarshiboyeva Xurinis Karimovna**

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma savodxonligini oshirish usullari va bolalar husnixatida uchraydigan muammolar ustida olib boriladigan ishlar haqida fikrlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *imloviy savodxonlik, malaka, bilim va og'zaki nutq.*

**Аннотация:** *В этой статье обсуждаются способы повышения письменной грамотности в начальных классах и работе над проблемами, возникающими в письменной грамотности детей.*

**Ключевые слова:** *письменная грамотность, каллиграфия, знания и навыки.*

**Annotation:** *This article discusses ways to increase written literacy in primary grades and work on the problems encountered in children's written literacy.*

**Keywords:** *written literacy, calligraphy, knowledge, skills, oral speech.*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar xalqimizning hayot tarzi yuksalishi, yoshlarimizni jahon talablari darajasida bilim olishi, kasb egallashi uchun cheksiz imkoniyatlar yaratmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'lim tizimi xodimlaridan, ayniqsa umumiy o'rta talim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan zamonaviy yondoshuvlar hamda innovatsiyalardan ijodiy va samarali foydalanishni taqozo qilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari savod o'rgatish jarayonida parallel ravishda yozuvdan ham elementar malakalar hosil qiladilar. Belgilangan dasturga ko'ra o'quvchilar quyidagi malakalarni egallashlari kerak bo'ladi:

-partada to'g'ri o'tirish, daftarni 65 gradus qiyalikda joylashtirish, chiziqlarni va harflarni chamalash, ruchkani to'g'ri ushlab, daftar hoshiyasiga amal qilish;

-alifbodagi barcha katta va kichik harflarni yoza olish, harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish, bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.

Ma'lumki, o'quvchilarning imloviy savodxonligi kun sayin pasayib bormoqda. Bugunki kun talablaridan kelib chiqib mulohaza qiladigan bo'lsak oquvchilar, talabalar orasida ham imloviy savodxonlikni ko'tarish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda kuzatishlar orqali o'quvchilarning axborot olish ob'yektlari oshib ketganligini ko'rish mumkin. Ilgari o'quvchilar faqat kitobdan yoki o'qituvchidan axborot olishar edi. Bugungi kunda ular axborotni televideniya, radio, gazeta va jurnallar, kundalik hayotdagi manbalar, internet, telefon, turli kitoblar va fan o'qituvchilaridan axborot olishadi. Shunday bo'lsada boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldida bitta muhim masala bo'lib turibdi. Bu savodxonlik masalasi.



Bu borada jonkuyar pedagoglar qanchalik izlanmasin, qanchalik ish olib bormasin yozma nutqni o'stirishda kutilgan samaraga erishib bo'lmayapti.

Ta'lim jarayonida dastlabki bosqich – makatabgacha ta'lim tashkilotlari hisoblanadi. Aslida bola ongiga ona tili ona suti orqali singiydi. Bola ona tilida biyron so'zlay olsa yozma nutqni rivojlantirish oson kechadi. Uning erishgan nutqiy faoliyat darajasi yozma savodxonlikni o'stirishga xizmat qiladi.

Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar harflarni yozishdan oldin uning shaklini ko'z oldiga keltirib fikrlab oladi, ba'zi harf shaklini havoda chizadi. Harfni namunaga qarab ko'chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uning qanday yozilishini o'zicha pichirlab gapiradi. O'qituvchi oquvchiga harf shaklini tushuntiradi, ruchkani to'g'ri ushlatadi va harfni yozib ko'rsatadi. Bundan tashqari bola yozuvning texnik tomoniga katta kuch sarflaydi. Savod o'rgatish davri oxirida o'quvchi har bir darsda 20tacha so'zni yoza olishi mumkin.

Yozuvga o'rgatishning tashkiliy va gigiyenik shartlariga alohida e'tibor qaratish kerak. Maktabda asosiy yozuv quroli bu shaikli ruchka xattaxtaga yozishda bo'rlardan foydalaniladi. O'quvchilar savodga o'rgatish jarayonida ikki chiziqli daftardan foydalanishadi. Xattaxta ham shunga moslashgan bo'ladi. Ikkinchi sinfning ikkinchi yarmidan bir chiziqli daftarga o'tishadi.

Daftar tutish qoidalari ham o'qituvchi tomonidan muntazam o'rgatib boriladi. O'quvchi hoshiyaga o'tmaslikka, xat boshidan yozishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bo'yi va enini to'g'ri chamalashga, sarlavhani aniq va to'g'ri ajratishga, bo'yamaslikka va saranjom-sarishtalikka o'rgatib boriladi. Yozuv darslarida o'quvchilarda avvalo grafik malaka hosil qilish muhim o'rin tutadi. Grafik malaka ham boshqa malakalar qatori ta'lim jarayonida tinimsiz mashqalar orqali shakllantiriladi. Grafik malaka qo'l harakati malakasi hisoblanadi va muskul kuchiga asoslanadi. Yozuv jarayonida tovushlar grafik belgilarga, ya'ni harflarga tarjima qilinadi. Xuddi mana shu narsa yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Bu narsa tovush va harfning to'g'ri nisbatini aniqlashda, grafik va imloviy qoidalarga rioya qilishga, o'z fikrini, rasavvurlarini, tuyg'ularini ifodalashda o'z aksini topadi. Yozuv daftarida o'quvchilar Alifbe darsida o'rgangan harflarini yozma shaklini mashq qiladilar. Nutqiy faoliyatini o'stirish uchun daftar daftarning yuqori qismida biror predmet rasmi keltirilishi, ayrim predmet nomlarini ifodalovchi so'z chizmasi katakchalarga ajratib berilishi, gap nusxalarining keltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zi o'rinlarda o'quvchilar berilgan so'z yoki gap chizmasini o'zlari mustaqil ifodalaydilar.

Yozuvga o'rgatishda orfografik elementlar muhim hisoblanadi. Orfografiya yunoncha so'z bo'lib, "to'g'ri yozuv" degan ma'noni ifodalaydi. U adabiy tilning yozma shakli bilan uzviy bog'liq bo'lib, to'g'ri yozish haqidagi qoidalar majmuidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til me'yorlari asosida yozma ifoda qilib bo'lmaydi.

O'quvchilarda imloviy savodxonlikni rivojlantirish tilning aniqligi, nutqning ravonligi, fikrni to'g'ri ifodalashi, kishilar bilan muloqot jarayonida chiroyli va xatosiz



muomala qilishi uchun g'amxo'rlik demakdir. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarda grafik malaka bilan birga imloga oid malaka ham shakllantiriladi. Yana bolalarda o'z-o'zini tekshirish malakasi ham rivojlantirib boriladi. Ular yozganlarini namuna bilan solishtiradilar, o'z xatolarini o'zlari topadilar, ularni tuzatish va izohlashga o'rganadilar. Savod o'rgatish davridanoq o'quvchilar ko'chirib yozish, diktant yozish va ijodiy yozuv turlaridan foydalanib boshlaydilar. So'z va gaplarni yozishdan oldin tayyorgarlik mashqlari muntazam o'tkazib boriladi. Ya'ni o'z-o'zini tekshirish mashqlari, o'qilgan matnning imlosini kuzatish mashqlari olib boriladi. Bunday faoliyat o'quvchilarda yuqori savodxonlik garovi bo'lgan orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllanitara boradi va ularni yuqori sinflarda o'rganiladigan imlo qoidalarini puxta egallashlariga zamin yaratadi.

Yozuv darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilar gap yoki hikoyani erkin tuza oladilar, ammo uni yozma lozim. Og'zaki nutqni yozuvda to'g'ri ifodalay olishlari uchun ijodiy yozuv mashqlarini izchil ravishda o'tkazib borish va asta-sekin murakkablashtirib borish kutilgan samarani beradi. Izchillik bilan olib borilgan bunday mashqlar o'quvchilarni bayon va insho yozishga tayyorlaydi, o'z fikrlarini mustaqil ravishda yozma bayon qilishlariga o'rgatadi.

Dastur talablari bo'yicha birinchi sinf o'quvchilari "Alifbe" kitobiga ilova tariqasida chiqarilgan "Yozuv daftari" dan foydalanishlari ayni muddaodir. Yozuv daftari sifatli silliq qog'ozdan ishlangan, uning chiziqlari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi kerak. Qiya chiziqlar orasi 25 mm, harflar 65 gradus qiyalikda yoziladigan kichik satr oralig'i 5mm.ga teng bo'lishi talab qilinadi.

O'quvchilar uchun tavsiya etiladigan sharikli yoki gelli ruchkaning yo'gonligi bolalar barmoqlariga mos bo'lishi, uzunligi 130mm dan oshmasligi chiroyli va sifatli yozuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Sifatli yozuv deganda yozuvning aniq, toza, bir xil qiyalikda, bir xil balandlikda bo'lishi, tekis va bo'yalmay yozilishi nazarda tutiladi. O'quvchilarda yozuv sifatlarini shakllantirish uchun quyidagi ishlarni o'quvchilarga husnixat tamoyillari asosida asta-sekin va sabr bilan singdirib borishi kerak:

- a) harf unsurlari va harfalarni bir-biriga to'g'ri bog'lay olish;
- b) yozuvning 65 gradus qiyaligi borasida o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish;
- v) harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish;
- d) harflar va so'zlar orasidagi masofani bir xil saqlash;
- g) barcha o'quvchilarning bir xil tezlikda yozishlariga erishish.

Maktab ostonasiga qadam qo'ygan bola o'quvchilik faoliyatini boshlar ekan, harflarni birin-ketin daftarga tushira boshlaydi. Bu uning hayotida yozma nutqning dastlabki ko'rinishi hisoblanadi va uning yozma savodxonligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu savodxonlik umumiy o'rta ta'lim jarayonida mustahkamlanib, sayqallanib boradi. Oliy ta'limda esa yanada jadallashadi. Bunday jarayonning fundamenti boshlang'ich ta'limda qo'yilishini unutmash kerak. Ammo ba'zi o'quvchilarda bu narsa keyinroq ham rivojlanadi. Bolaning yozma savodxonligi keyinchalik ham rivojlanishi mumkin.



O'z ustida ishlaydigan o'qituvchilar albatta buning uddasidan chiqadilar. Bunda yuqori sinflarda dars beruvchi ona tili va adabiyot o'qituvchilarining hissasi katta bo'ladi. Chunki ta'lim olishning erta-kechi bo'lmasligi haqidagi ajib hikmatlar ham bejizga emas. Ota-onalar ham o'qituvchi bilan hamkorlik qilishlari, bolaning ta'lim olishiga mas'uliyat bilan yondoshishlari kerak bo'ladi. O'z farzandi kelajagi bilan qiziqqan ota-ona uning yozma savodxonligiga ham albatta e'tibor qaratadi. Fan o'qituvchisi esa unga yanada chiroyli ishlov beradi. O'quvchining xunuk yozish sabablari juda ko'p. Ulardan biri va asosiysi boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining e'tiborsizligi hisoblanadi.

Ko'pincha o'quvchilarda ikki yo'alishda kamchiliklar uchraydi: birinchidan xunuk, ikkinchidan xato yozadilar. Ular bilan ota-ona va o'qituvchi individual tarzda shug'ullanishlari kerak. Bunday individual ishlar bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchidan, o'quvchi yo'l qo'yayotgan xatolar umumlashtiriladi, sabablari aniqlanadi. Tavsiyalar va ish rejasi ishlab chiqiladi;

ikkinchidan, esa reja bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi. Ya'ni xatolarni bartaraf etish uchun so'zlarning to'g'ri variantlarini takrorlash va qayta-qayta yozish kerak bo'ladi;

uchinchidan, Alifbodagi harflarning yozilishini qaytadan o'rgatish kerak bo'ladi;

to'rtinchidan, talaffuz me'yorlarini o'rgatish va o'quvchi bilan takrorlash;

beshinchidan imlo lug'atlari bilan ishlash;

oltinchidan, individual mashqlar jarayonida diktantlar, insho va bayonlar olish;

yettinchidan, o'quvchiga biror mavzu yuzasidan matn tayyorlatish. Bu bosqichdagi ish ancha murakkab, ammo juda samarali. Chunki, mustaqil ishlayotgan o'quvchi ham yozma, ham og'zaki nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda fikrlash qobiliyatini ham, asoslash va dalillash qobiliyatini ham o'stirib boradi.

Yuqorida ko'rsatilgan har bir bosqichda o'quvchi qiynalishi uchun mashq bermaslik kerak. Aks holda bolaning o'ziga ishonchi so'nadi. Unga oson va yengil mashqlar berib g'oliblikni his etishiga imkon yaratish kerak. Toki bola o'z imkoniyatlari cheksizligiga va albatta g'olib bo'lishiga ishonishi kerak. Bosqichlarning biri tugamasdan turib keyingisiga o'tmaslik kerak. Bu individual ishlashning asosiy sharti bo'ladi. Bosqichlar bola imkoniyatidan kelib chiqib bajariladi, ya'ni bosqichlar orasida muddat belgilamaslik kerak. Har bir bosqichni bajarib keying bosqichga tayyor bo'lgan o'quvchi muvaffaqiyatlari uchun albatta rag'batlantirilishi kerak. Bunda turli usullardan foydalanish mumkin. Eng muhimi o'quvchi mehnatlari e'tirof etilganini, kichik muvaffaqiyati ham ota-onasi va ustozlari uchun cheksiz quvonch bag'ishlaganini sezsa, yanada katta kuch va xohish bilan oldinga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh deb bejizga aytilmaydi. Imkoni boricha yozma savodxonlik darajasini oshirish uchun boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sidqidildan, vijdonan harakat qilishi kerak. Ammo yuqori sinf bo'la turib chiroyli va bexato yoza olmaydigan o'quvchilar ham umid uzmasliklari lozim, chunki inson har qanday yoshda ham bilim ololadi. Bir muncha qiyinroq bo'lishi



mumkin. Ammo inson bilim olishining hech qachon kechi bo'lmaydi. Xatto oliy ta'limga kelib chiroyli va bexato yozuvga erishgan talabalarimiz buning yaqqol dalilidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish.
2. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo'llari. *Konferensiya*, 1(1), 379-382.
3. Qarshiboyeva, X. K. (2021). Yozma savodxonlikni oshirishda boshlang'ich sinflarda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. *Konferensiya*, 1(1), 286-289.
4. Karimovna, K. K. (2023). Taking the Education System to a New Level with the TALIS International Assessment Program and Action Strategy. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(4), 245-249.
5. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X., Egamberdiyeva, N. A. (2022). Increasing the profitability of the learning environment through the organization of adaptive learning. *NeuroQuantology*, 1(20), 1217-1224.
6. Azizovna, E. N. (2023). Autizm sindromli bolalar bilan ishlash hozirgi kunning dolzarb masalasi sifatida. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 3(4), 95-100.
7. Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida. *Konferensiya*, 1(1), 154-158.
8. Qodirova, F. U.; Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalarni tashxislash va korrektsiyalash ishlarining mazmuni. *Konferensiya*, 1(1), 201-205.
9. Azizovna, E. N. (2022). Bolalar serebral falajida o'yinli metodlardan foydalanish. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 207-210.
10. Эгамбердиева, Н. А. (2022). Воспитание у детей трудолюбия с использованием узбекских народных пословиц. *Воспитание дошкольников*, 1(1), 75-78.
11. Egamberdiyeva, N. A.; Raxmatullayeva, M. R. (2022). Inklyuziv ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. *Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari*, 1(1), 163-167.
12. Тожибоева, Г., Юнусова, М., & Салахова, Р. (2021). Use of didactic material in the process of learning writing. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktika*, 1(1).
13. Юнусова, М. Т. (2023). Социальная составляющая языкового образа человека, репрезентируемая фразеологизмами, пословицами, поговорками, взаимосвязь языка и культуры на материале русского языка. *ILM SARCHASHMALARI*, 1(8), 198-203.



14. Yunusova, M. T. (2023). Proverbs, sayings, Phraseologists as a subject of study of the social component of the language image of a person (Based on the material of the Russian language). *Web of Teachers: Inderscience Research*, 1(7), 40-48.
15. Юнусова, М. Т. (2022). ОБРАЗ-КОНЦЕПТ «ЧЕЛОВЕК» В РУССКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА. *World scientific research journal*, 2(1), 14-20.
16. Qarshiboyeva, X. K. (2023). TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliklari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, 1(3), 72-77.
17. Qarshiboyeva, X. K., & Muminov, Z. S. (2023). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, 1(3), 269-274.